



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqq boshlagan

№9 (819), 2026-yil 15-may

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuniga

YUTUQLAR — JASORATLI MEHNAT SAMARASI

Qadri hamkasblar, mehnat faxriylari va yoshlar!

Avvalo, barchangizni — O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni bilan chin dildan tabriklab yaxshi tilaklarni izhor etamiz.

Zero, kombinatimizning kechani-kecha, kunduzni-kunduz demasdan xizmat qilib kelayotgan muhandis va texnologlari, mutaxassis va ishchi-xodimlarining fidokorona mehnati, jasorati har qanday shon-sharafga loyiqdir.

Qutlug' bayram kuni aytilayotgan tabrik va tilaklar, yutuq va e'tiroflar kelgusi marralarni egallashda har birimizga yangi kuch, baland ruh, ishonch va yanada mas'uliyat bag'ishlashi tabiiy.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miramonovich Mirziyoyev rahnamoligida olib borilayotgan islohotlar xalqimiz hayoti, har bir soha rivojida yuksak samarasini berayotganiga guvohmiz.

Ulkan taraqqiyot yo'lidani borayotgan Yangi O'zbekistonda tub islohotlar barcha soha va tarmoqlar qatori konchilik va metallurgiya sohasida ham yangi davrni boshlab berdi. Ushbu qutlug' ayyomda, avvalo, o'z kasbingizga sodiq qolib, yurtimiz taraqqiyoti, kombinat rivoji yo'lida zimmangizdagi muhim vazifalarni yuksak mas'uliyat bilan ado etib kelayotganingizni alohida ta'kidlashni istardim. Keyingi o'n yil kombinat hayotida katta o'zgarishlar, ertangi kunga mustahkam ishonch va ulkan yuksalish davri bo'ldi. Konchilik va metallurgiya tarmog'ini yangi zavod va konlar hisobiga kengaytirishga, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga muvaffaq bo'layapmiz.

Jumladan, 2016-2025-yillarda jamoamiz mehnat ahlining kuch-g'ayrati, aql-zakovati bilan yirik investitsion loyihalarni ishga tushirish hisobiga tog' jinslarini qazish 107,4 million kubometr — 320,2 million kubometrga yoki qariyb 3 baravarga, ma'danni qayta ishlash 60,6 million tonnadan — 116,7 million tonnaga yoki 1,9 baravarga oshirildi.

Oltin ishlab chiqarish 2016-yildagi 72,7 tonnadan — 2025-yilda 98,2 tonnaga yoki 35 foizga, kumush ishlab chiqarish 13,9 tonnadan — 23,6 tonnaga yoki 70 foizga oshdi.

Bu ishlarning barchasini sinovlarda toblangan, mustahkam irodali, har qanday ulkan ishlarni bajarishga qodir, shuning bilan birga, yuragida tug'ilib o'sgan diyori, kombinatimizga mehr-muhabbati, sadoqati cheksiz ishchi-xodimlarimiz, mahalliy yoshlarimiz amalga oshirmoqda. Bugun ulkan korxonamizda mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, chinakam vatanparvar avlod — yosh rahbarlar, mutaxassislar kamol topayotgani, safi kengayib borayotgani quvonarlidir. Ulari haqli ravishda kombinatimizning oltin fondari hisoblanadi.

Bugun o'zbek oltinining yuqori sifati butun dunyoda yuksak e'tirof etilayotgani, mamlakatimiz oltin-valuta zaxiralari yuksalib, ortta to'qqiz tamg'ali oltin quymlarimiz jahon qimmatbaho metallar birjalarda Yangi O'zbekiston brendiga aylangani qabimizga cheksiz faxru iftixor bag'ishlaydi. Nasib bo'lsa, 2030-yilgacha oltin ishlab chiqarishni 125 tonnaga yetkazishni niyat qilganimiz. Ulkan reja va tashabbuslarni amalga oshirishda jonkuyar va fidoyi konchi va metallurglar, geologlar, energetik va transportchilar, quruvchi va xizmat ko'rsatish xodimlarining o'rni beqiyosdir.

Oradan yillar o'tadi, birgalikda amalga oshirgan ishlarimiz kombinatimiz shonli tarixida yorqin sahifa, kelgusi avlodlar uchun yuksak ibrat namunasi bo'lib qoladi. Barcha yutuqlarimiz zamirida tinimsiz izlanish, ilm yotibdi. Olim va mutaxassislar, muhandis-texnologlarimizning boy tajribalari, yaratgan ilmiy ishlanmalari, texnologik yechimlari va ratsionalizatorlik takliflari yutuqlarga mustahkam poydevor bo'lmoqda.

Joriy yilning o'tgan to'rt oyida 58,5 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarib, mahsulot tannarxini ka-



maytirishni 2,6 trillion so'mga, investitsiya mablag'lari o'zlashtirishni 143,2 dollarga, mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni 531 milliard so'mga uddaladik.

Yaqinda Yangi O'zbekistonda tarixiy sana — mustaqilligimizning 35 yilgini yurtimiz bo'ylab keng miqyosda nishonlaymiz. Eng ulug', eng aziz bayramga sovg'a sifatida may-avgust oylarida 2-gidrometallurgiya zavodida ma'danni qayta ishlash quvvatini yiliga 55 million tonnaga yetkazish imkonini beruvchi yangi tegirmon bloklari, 3-gidrometallurgiya zavodida uch seksiyali gradirniya binosi, Janubiy kon boshqarmasida 400 o'rinni maishiy bino, "Dovg'iztov" ko'ni 250 o'rinni oshxona ishga tushirila-

di. Kasb bayrami arafasida "Oltin vodiy" madaniyat saroyi kapital ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi.

Ma'lumki, ijtimoiy himoya, munosib ish va yashash sharoitlarini yaratish korxonalar ma'muriyati va kasaba uyushmasi Kengashining bosh vazifasidir. Ishchi-xodimlarimiz, ularning oila a'zolariga moddiy va ma'naviy sharoitlarni yaratib berish bo'yicha halli ko'p ish qilishimiz zarur. Jamoamiz mehnatini qadrlash bundan buyon ham doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi. Bu, muhtaram Prezidentimizning odamlarni hayotidan rozi qilishdek xalqparvarlik siyosatiga amaliy javobimiz ham bo'ladi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida sohani yanada rivojlantirish bo'yicha

kelgusi vazifalar aniq belgilab berilgan. Jumladan, oltin ishlab chiqarishni — 1,5 barobar, kumushni — 3 karra, misni — 3,5 martaga oshirish maqsad qilingan. Ushbu strategik vazifalarni amalga oshirishda muhtaram Yurtboshimizning tashabbus va g'oyalari biz uchun hamisha dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Kombinatni milliy iqtisodiyotimizning muhim tarmog'i sifatida rivojlan-tirish, yangi loyihalar bo'yicha ishlarni boshlab yuborganmiz. Kombinatni barqaror rivojlantirish dasturiga ko'ra 2030-yilgacha korxonamizda ishlab chiqarish hajmini muttasil oshira borish belgilangan. O'ta mas'uliyatli hozirgi davrda oldimizga qo'yilgan vazifalarni to'liq va sifatli amalga oshirish uchun barchamiz

hamjihatlikda harakat qilishimiz kerak.

Aziz hamkasblar! Professional mahorat, kuch-g'ayrat, bilim va tajribangizni safarbar etib, ulkan vazifalarni muvaffaqiyatli ado etishga munosib hissa qo'shishlaringizga ishonaman.

Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor chin dildan tabriklab, barchangizga mustahkam sog'liq, baxt-saodat, yangi yutuqlar, xonadonlaringizga tinchlik va fayzu baraka tilayman.

Quvondiq SANAYEV,
"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ
Boshqaruvi raisi — Bosh direktori.

ZAMIN QA'RIDAN YUKSALAYOTGAN QUDRAT!

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilgini arafasida "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan ezgu g'oya bilan hamohang tarzda nishonlanayotgan konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni soha vakillari uchun alohida ma'no va mazmun kasb etmoqda. Bu sana nafaqat kasb bayrami, balki zamin bag'ridan boylik yaratayotgan insonlar mehnatiga yuksak ehtirom ifodasi hamdir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar natijasida sanoat tarmoqlari, xususan konchilik va metallurgiya sohasi tubdan modernizatsiya qilinmoqda. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish bugungi sanoat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Konchilik va metallurgiya — tabiatga ko'ra eng og'ir, biroq eng sharafli sohalardan biridir. Yer qa'ridan ma'dan boyliklarini qazib olish, uni qayta ishlash va tayyor mahsulotga aylantirish jarayoni yuksak bilim, zamonaviy texnologiya va katta mas'uliyatni talab etadi. Ana shu murakkab tizimda minglab fidoyi konchilar, muhandislar va texnologlar o'z mehnati bilan mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda.

Shimoliy kon boshqarmasi konchilik va metallurgiya sanoatidek mashaqqatli hamda sharafli sohada azmu shijoat va matonat bilan mehnat qilayotgan jasorat sohiblarini jamlagan ulkan korxonalar. Asov cho'l tabiiy konchi azamatlarni murakkab iqlimning ayovsiz injiqliklari bilan sinasa-da, shimolliklar, marrani hamisha ilm va fidoyi mehnat bilan zabt etishga o'rganib qolganlar. Bu g'ayrat va shijoat jamoamizning ona zaminga mehr-muhabbati va Vatanimizning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash yo'lidagi ulug'vor maqsadlaridan shakllangan.

ULUG' MAQSADLAR YO'LIDA

Yangi O'zbekistonimiz barcha soha va tarmoqlarda yuksalishning yangi bosqichiga dadil qadamlar bilan bormoqda. Inson qadri ulug'lash, xalqimizni rozi qilish, mamlakatimizni jahondagi qudratli davlatlar qatoridan munosib joy olishiga erishish Prezidentimiz islohotlarining bosh maqsadidir. Mazkur evrilishlar kon-metallurgiya sanoatida ham mulqo yangi davrni boshlab berdi. Gigant korxonamizni keng qamrovli rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlar joriy etildi, ijro qat'iy belgilandi. Kombinativ bo'linmalari bo'ylab ma'dan qazib olish va qayta ishlash sur'atini oshirish, yangi quvvatlarni ishga tushirish, texnologik jarayonlarni modernizatsiya qilish, mahalliyashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, qo'shimcha ish o'rnlarni yaratish kabi misli ko'rilmagan yangilanishlar yo'lga qo'yildi. Kon massasi qazib olish bo'yicha 2026-yilning to'rt oylik rejasi 102,5 foizga bajarildi. Bu, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,8 foizni tashkil etmoqda.

TARAQQIYOT VA YUKSALISH — MAQSADIMIZ

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar iqtisodiyot, sanoat va ijtimoiy sohalarda yurtimizni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqmoqda. Konchilik va metallurgiya sanoati — mamlakatimiz iqtisodiyotining tayanch tarmoqlaridan hisoblanadi. Aynan shu soha vakillari o'zining og'ir, mas'uliyatli va shu bilan birga sharafli mehnati bilan tabiiy boyliklarni xalq farovonligiga xizmat qiluvchi qimmatli mahsulotlarga aylantirmoqda. Qazib olingan har bir tonna ma'dan, ishlab chiqarilgan mahsulot ortida minglab insonlarning mehnati va yuksak mas'uliyati mujassam.

"Qizilqum" kon boshqarmasi jamoasi ham mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlashga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Korxonamizda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, xodimlar malakasini oshirish va yangi ish o'rnlarni yaratish orqali barqaror o'sish ta'minlanmoqda. Konchilar va metallurglarimizning mehnati issiq cho'l iqlimida, yer osti qa'rida, murakkab texnologik jarayonlarda namoyon bo'ladi, uni haqiqiy qahramonlikka qiyoslash mumkin.

Kasb bayramimizning an'anaviy tarzda nishonlanishi soha vakillariga ko'rsatilayotgan yuksak e'tiborning yaqqol ifodasidir. Bu bayram har birimizga faxr va g'urur bag'ishlaydi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda inson qadri, uning manfaatlari va farovonligi bosh mezon bo'lib xizmat qilmoqda. Bu tamoyillar bizning faoliyatimizda ham o'z ifodasini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni bayrami arafasida Janubiy kon boshqarmasi bosib o'tgan yo'lga nazar tashlar ekanmiz, keyingi o'n yillik tarixiy davr jamoa uchun ham ulkan imkoniyatlar eshigini ochganini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

BUGUN VA ERTA UCHUN HAR BIRIMIZ MAS'ULMIZ

Kombinat ko'magi hamda jamoamiz shijoati bilan mustaqil yillarda 4-gidrometallurgiya zavodi, yer osti shaxtalari, turli ishlab chiqarish tarmoqlari barpo etilgan chinakam yaratuvchanlikning amaldagi namunasi.

Ayni paytda yiliga "Zarmitan", "Gujumsoy", "O'rtaqliq" konlaridan qazib olinayotgan qariyb 2 million tonna oltinga boy ma'danni qayta ishlaydigan zavod Kanada va Avstraliyadan keltirilgan zamonaviy va yuqori texnologik uskunalar bilan jihozlangan.

Loyihaning asosiy afzalliklari majmuaning nishablikda barpo etilishi, uskunalarining salmoqli hajmi o'zimizda ishlab chiqarilishida va energiya samaradorligi hamda suvdan oqilona foydalanishda. Yuqori texnologik ma'danni qayta ishlash inshootida kunlik 6 ming tonnadan ortiq ruda bir necha bosqichda qayta ishlanib, kon shaxtalaridan sizib chiqayotgan suvning ishlab chiqarishga qayta yo'naltirilishi natijasida "To'-sinsoy" suv omboridan olinadigan suv miqdorini oyiga 125,5 ming kubometrgacha kamaytirishga erishilayapti.

O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuniga



ZAMIN QA'RIDAN YUKSALAYOTGAN QUDRAT!

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Markaziy kon boshqarmasida faoliyat yuritayotgan zahmatkash jamoamiz tomonidan o'tgan yili 146,8 million kubometr tog' jinslari qazib olindi, 90,1 million tonna ma'dan qayta ishlandi. Bu ko'rsatkichlar korxonada tarixdagi eng yuqori natijalardan biridir. Solishtirish uchun, 2016-yilda bu raqamlar mos ravishda 62,6 million kubometr va 49,8 million tonnani tashkil etgan. Demak, qisqa davrda ishlab chiqarish hajmi qariyb ikki barobarga oshdi.

Bunday yuksak natijalarga erishishda so'nggi o'n yilda amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalari, jamoaning birdamligi va mutaxassislarining kasbiga sadoqati hal qiluvchi omil bo'ldi. Shuningdek, sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati va amaliy ishlohtlar bu jarayonda muhim o'rin tutdi.

Jumladan, qiymati 733,94 million AQSh dollariga teng "Muruntov" konini o'zlashtirishning V navbati (1-bosqichi) doirasida ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilindi, resurslardan samarali foydalanishga erishildi. Natijada korxonaning ishlab chiqarish salohiyati sezilarli darajada oshdi.

Qiymati 168,3 million dollar bo'lgan "2-gidrometallurgiya zavodini kengaytirish" loyihasi esa ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va texnologik jarayonlarni takomillashtirish imkonini berdi. Natijada korxonaning raqobatbardoshligi yanada mustahkamlandi.

Qiziqim bag'rida joylashgan yirik sanoat majmualari, jumladan, dunyoga mashhur "Muruntov" koni hamda zamonaviy gidrometallurgiya zavodlari bugun mamlakat sanoat salohiyatining muhim tayanchiga aylangan.

2 va 7-gidrometallurgiya zavodlarida joriy etilgan zamonaviy texnologiyalar sohadagi sifat o'zgarishlarini yaqqol namoyon etmoqda. 2-GMZda ma'danni qayta ishlashdan tortib, "999,9" namunalari oltin quymalarini tayyorlashgacha bo'lgan barcha jarayonlar yagona tex-

nologik zanjirda amalga oshirilmoqda. 2021-2024-yillarda zavodning investitsion loyiha asosida yiliga 12 million tonna ma'danni qayta ishlash quvvatiga ega 2-navbati ishga tushirilgani hamda 2024-2026-yilda qo'shimcha 33, 34 va 35-tegimron bloklarining ishga tushirishi tegimronlar sonini 82 taga yetkazib, zavodning yillik ishlab chiqarish quvvatini 60 million tonnaga yetkazish imkonini berdi. Ayni vaqtda "2 va 7-gidrometallurgiya zavodining chiqindilarini birgalikda saqlash uchun 2-GMZ chiqindi omborini kengaytirish va rekonstruksiya qilish" loyihasi bo'yicha ishlar jadal sur'atlarda davom etmoqda.

7-GMZ zavodi esa texnogen chiqindilarni qayta ishlashga ixtisoslashgani bilan alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirmoqda, balki ekologik barqarorlikka ham xizmat qilmoqda. Zavodda 2020-yilda 3,5 million tonna ma'dan qayta ishlangan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 21,3 million tonnaga yetdi, joriy yilda esa 25 million tonnaga yetkazish rejalashtirilgan.

Konchilik sohasida transport tizimi ham ishlab chiqarish zanjirining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Zamonaviy yuqori yuk ko'tarish quvvatiga ega avtoqar'dagichlar va maxsus texnikalar yordamida ma'dan va tog' jinslari uzluksiz tashilmoqda. Hozirgi kunda 254 tonnagacha yuk ko'tara oladigan texnika vositalari ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etilgan bo'lib, har oyda o'rtacha 16 million kubometrda oshiq tog' jinslari manzillarga yetkazilmoqda.

Sohada inson omiliga qaratilayotgan e'tibor ham alohida ahamiyatga ega. 18 ming nafarga yaqin jamoaning 2 mingdan ortig'ini xotin-qizlar, 5 mingga yaqinini esa yosh mutaxassislar tashkil etadi. Bu esa sohada kadrlar siyosati yangi bosqichga ko'tarilganini, zamonaviy bilim va innovatsion yondashuvlar ishlab chiqarish jarayonlariga chuqur kirib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, xodimlar uchun munosib mehnat sharoitlari yaratish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish choralarini tizimli ravishda amalga oshirilmog'ida. Bu esa mehnat unumdorligini oshirish va jamoalarda barqaror ijtimoiy muhitni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

"O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida konchilik va metallurgiya sohasini yanada rivojlantirish, qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish har bir mutaxassisdan yuksak mas'uliyat va fidoyilikni talab etadi.

Konchilar va metallurglar kuni – bu erishilgan yutuqlarni sarhisob qilish, yangi maqsadlarni belgilash va eng muhimi, zamin qa'ridan qudrat yaratayotgan insonlar mehnatiga munosib baho berish kunidir. Ularning mehnati mamlakat sanoat taraqqiyotining muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa o'rinda, bugungi bayram – amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilish, erishilgan yutuqlarni xolis baholash, mavjud imkoniyat va salohiyatni to'liq safarbar etgan holda yangi maralar sari aniq qadamlarni belgilab olish uchun muhim imkoniyatdir. Bayram shukhi esa har bir konchi va metallurg qalbida o'z kasbiga bo'lgan iftixor, Vatana ravnaqqa daxldorlik va sadoqat tuyg'ularini yanada mustahkamlaydi.

Fursatdan foydalanib, konchilik va metallurgiya sohasi xodimlarini, shuningdek, tarmoqning barcha jamoalarini kasb bayrami bilan samimiy tabriklayman. Sizlarga mustahkam sog'lik, oilaviy farovonlik va sharafli mehnat faoliyatigizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman. Yurtimiz ravnaqi va Yangi O'zbekiston taraqqiyoti yo'lidagi fidokorona mehnatingiz doimo yuksak qadrlansin!

Otabek MUSTAKIMOV,
Markaziy kon boshqarmasi
direktori.

ULUG' MAQSADLAR YO'LIDA

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Kon boshqarmamiz tarkibidagi "Sharqiy", "Dovg'iztov", "Auminzo-Amantov" konlari jamoalari ham to'rt oylik rejalarini ortig'i bilan uddalab, o'tgan yilning shu davriga solishtirganda o'sish sur'atlarini ta'minladilar. Raqamlar ulug'vor va mashaqqatli ishga astoydil bel bog'lab, yelkama-yelka turib qilingan mehnatimiz, vatanparvarlik, burchimizga sadoqatimizning ifodasidir.

Davr, bizdan Vatanimizning iqtisodiy qudratini oshirish, farovon kelajagimiz yo'lida tinimsiz izlanishni, xotirjamlikka berilmay, ustuvor vazifalarga mas'ullik va javobgarlik hissi bilan yondashib yashashni talab etmoqda. Bosh direktorimiz tomonidan tasdiqlangan loyiha va dasturlarga tayanib ish olib bormoqdami. Xususan, "Qoqpatas" va "Dovg'iztov" oltin konlarida ma'dan qazib olish. III navbat investitsiya loyihasi doirasida 3-gidrometallurgiya zavodining maydalash sexidagi 8-tegimron blokida I bosqich maydalash tegimroni qurilib, foydalanishga topshirildi. Ushbu investitsion loyiha ijrosi natijasida, zavodning sulfidli ma'danlarni yillik qayta ishlash ko'rsatkichi shu yilning o'zidayoq 10,3 million tonnaga yetkazilishi

oshgandik. Bugungi kunda "Dovg'iztov" konida 250 o'rinni oshirish va ichimlik suv omborini qurish, "Sharqiy" konida kon ishchi-xodimlari uchun 2400 o'rinni maishiy bino hamda tovar-moddiy boyliklarni saqlash omborini kengaytirish va rekonstruksiya qilish, 3-gidrometallurgiya zavodi hududida yangi qo'riqlash shaharchasini qurish loyihalari bo'yicha keng ko'lami qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda.

Qon-qonida yaratuvchanlik xarakteri yashovchi xalqimiz qadami yetgan, qo'nim topgan manzilida obodlikka, yashillik va farovonlikka intiladi, daraxt o'tqazadi, uy quradi, mavjud imkoniyatlarning faol ishtirokchisi va ijodkori bo'ladi. 2026-yil bahorgi mavsumda jami 19 ming 200 dona manzarali, mevali va buta ko'chatlari o'tqazildi. Bo'linmalarda, yangidan tashkil etilgan bog'larda tomchilatib sug'orish tizimlari joriy qilindi. 3-gidrometallurgiya zavodiga tutash yo'l yoqasida 1,5 gektar maydonda "Yashil belbog" hamda 1,05 gektarda kon boshqarmamizning "Yoshlar bog'i" tashkil etildi. Darhaqiqat, yoshlar to'g'risida so'z borganda, Shimoliy kon boshqarmasi yoshlarining har jabhada faol va g'ayratli, zukko va abjir, mehnat



ko'zda tutilgan. Kasb bayramimiz arafasida, Bioksidlash sexi reaktorlaridagi haroratni barqarorlashtirish, mikroorganizmlarning yoz oylarida aktivligini yuqori darajada saqlash, bioksidlash jarayoni ko'rsatkichlarining me'yordan og'ishining oldini olish maqsadida, zavod hududida qo'shimcha sovutish minorasi ishga tushirildi. Ayni vaqtda, Bosh direktorimiz tomonidan tasdiqlangan "Raqamli yechimlarni qo'llagan holda 3-gidrometallurgiya zavodining operatsion samaradorligini oshirish chora-tadbirlar rejasini" doirasidagi ishlarning yakuniy bosqichi amalga oshirilmog'ida. Ijrosi ta'minlanayotgan chora-tadbirlar natijasi o'laroq, 3-gidrometallurgiya zavodimizda, joriy yilning 4 oyida ma'danlarni qayta ishlash ko'rsatkichi rejaga nisbatan 103,4 foizga, oltin ajratib olish darajasi 100,5 foizga, oltin ishlab chiqarish ko'rsatkichi 107 foizga bajarildi. Oksidli va sulfidli ma'danlarni parallel ravishda qayta ishlaydigan texnologik sxemaga ega 5-gidrometallurgiya zavodimizda yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlar bo'yicha 2026-yilning 4 oylik rejasini mos tarzda 102,2; 101,6; 102 foizga uddalandi. Yaqin kunlarda, mazkur zavodda, oltin ajratib olish ko'rsatkichini va ishlab chiqarish miqdorini yanada oshirish maqsadida, texnologik jarayonlarga yuborilayotgan aylanma suvlar tarkibidagi oltin zararchalarini ajratib olishga xizmat qiladigan, bu bilan, qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishga zamin yaratadigan lokal-sorbosion qurilma ishga tushirilishi ko'zda tutilgan.

Muhtaram Prezidentimiz boshchiligidagi Yangi O'zbekiston fenomeni asosida boshlangan ulkan islohtlar respublikamizdagi hayot tarzini tubdan o'zgartirdi, jumladan, bunyodkorlik borasida ham. Kombinatta "Manzilli qurilishlar dasturi" tasdiqlandi. Shimoliy kon boshqarmasi obyektlarida investitsiya loyihasi va kapital qurilishlarni jadallashtirish bo'yicha tasdiqlangan mazkur dastur asosida, o'tgan yilda katta dovonlarni

faoliyatidami yoxud hashardami jonkuyar ekanini ta'kidlashim kerak. Ayni vaqtda, korxonamizdagi qariyb 14 ming nafar ishchi-xodimning 3703 nafarini yoshlar tashkil etadi. Yoshlarimiz kombinat bo'linmalari orasida "Yilning eng yaxshi yoshlar yetakchisi" tanlovi doirasida barcha faxrii o'rinni qo'lga kiritganlar. Mart oyida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi 48 ta korxonada hamda tashkilotlar o'rtasida o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yinida Shimoliy kon boshqarmasi yoshlarining 1-o'rinni qo'lga kiritgani har birimizni faxrlantirdi. Umuman olganda, yoshlarimiz sport, ma'naviy-ma'rifiy hamda madaniy tadbirlar, hasharlar, ezgulik aksiyalari, ilmiy-texnologik yo'nalishlarda faollik bilan alohida ajralib turadi.

Amalga oshirayotgan barcha ishlarimiz inson manfaati va uning qadr-qimmatini oshirishga qaratilgan. Iqtisodiy taraqqiyot yo'lida qilyotgan mehnatimiz xalqimizning ijtimoiy manfaatlariga xizmat qilishini juda yaxshi bilamiz. Zero, Shimoliy kon boshqarmasida investitsion loyihalar ijrosi hamda yangi quvvatlarini ishga tushirish natijasida yangi ish o'rinlari yaratildi.

Kon-metallurgiya – sir-sinoatli soha, sharafi – ilm va tajriba, mashaqqat va zalvor ortida! Bugun, mazkur sohada mehnat qilayotgan va xizmat ko'rsatayotgan har bir xodim ana shu sharafli yukni yelkalagan. Yuksak mas'uliyatni ne'mat qadar ulug'lashadi. Buni yaxshi tushungan yuksak professional, mehnatkash jamoamizning bor ilmi idroki, malaka va tajribasi, mehnatmuhabbati yagona Vatana, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratish yo'lidagi ulug' maqsadlarga yo'naltirilgan.

Naim AMONOV,
Shimoliy kon boshqarmasi direktori.

BUGUN VA ERTA UCHUN HAR BIRIMIZ MAS'ULMIZ

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Bugungi kunda "Gujumsoy" konida 1 ming 190 nafar ishchi-xizmatchi faoliyat olib bormoqda. Kon ikkita tik stvol, ya'ni 1G va "Yordamchi 6G" stvollar hamda bir dona "5G QTY" (qiya transport yo'li) bilan ochilgan. "5G QTY" hamda "Yordamchi 6-G" va "1-G" stvollarini tog' jinslarini yer yuzasiga chiqarishga, ishchilarning shaxtaga tushib-chiqishi, asbob-uskunalar, materiallarni tushirib chiqarishga xizmat qiladi.

2011-yilda boshlangan yer osti kon lahimlarini qazib o'tish ishlari o'tgan yil yakunida 31 ming 75 metrga yetkazildi. Joriy yilda oltin tarkibli ma'danni qazish hajmini 850 ming tonnaga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Janubiy kon boshqarmasi keyingi yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yangi loyihalarni, quvvatlarini ishga tushirish hisobiga ish hajmi va ish o'rinlarini oshirish, kombinatning zamonaviy ishlab chiqarish tarmog'iga aylandi.

"Zarmitan" konining roppa-rosa bir yil muqaddam ishga tushirilgan Skipli shaxta stvoli O'zbekiston kon-metallurgiya sanoati tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Eni olti yarim metr, chuqurligi ming metr bo'lgan mazkur inshoot o'zining ilg'or muhandislik-qurilish, innovatsiya va raqamli texnologiyalar yechimlari asosida barpo etilganligi bilan noyobdir. Bu shaxta stvollarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida to'liq raqamlashtirilgan. Butun faoliyat markaziy operatorlik puliti orqali boshqariladi. Ular yordamida ish jarayonlari doimiy kuzatilib, yuqori tashish aniq hisob-kitoblarni orqali monitoring qilib boriladi.

Uning asosiy vazifasi yukni tez, samarali va xavfsiz tashishdan iborat. "Zarmitan" konining turli yer osti sathlarida qazib olinayotgan ma'dan +240 metr sathida yig'ilib, markazlashgan holda yer yuzasiga tashib chiqariladi. Bundan keyin ham mavjud konlarimizda bu kabi ilg'or, zamonaviy texnologiyalarni joriy etib borish asosiy vazifalarimizdan biri bo'ladi. Mazkur loyiha Skipli va klet shaxta ko'tarish qurilmalaridan iborat. Yer yuzasiga chiqarilgan ma'dan 4-gidrometallurgiya zavodiga qayta ishlash uchun yetkaziladi. Klet qurilmasi esa ishchi-xizmatchilar va kerakli jihozlarni yer osti sathlariga olib tushish hamda olib chiqishga mo'ljallangan. Eng muhimi, ushbu qurilmalar xavfsiz va tejamkor. Ularning ishga tushirilishidan yillik iqtisodiy samaradorlik 44,5 milliard so'mni tashkil etadi. Bu qurilma elektr energiyasi hisobiga ishlagani bois, uning ekologik jihatdan atrof-muhitga mutlaqo salbiy ta'siri yo'q.

O'tgan yili "Zarmitan" konidagi "Asosiy" shaxta stvolining chuqurligi 1000 metrga yetkazildi. Uni ming metrgacha chuqurlashtirish nafaqat zarurat, balki biz uchun iqtisodiy manfaatdorlik prinsipi aylandi. Chunki shaxtyorlar, kerakli materiallar va jihozlarni "Kapital" shtolnyasi orqali shaxtaga tushirib-chiqaradigan "Asosiy" shaxta stvoli yer osti suvlarini yer yuzasiga haydash, shaxtani toza havo oqimi bilan ta'minlash va shaxtadan tog' jinslarini chiqarish uchun zaruratga aylangan. Yer sathidan ming metr pastda suv chiqarish komplekslari qazilib, mustahkamlandi. Eng asosiy, sig'imi 2,2 kubometr vagonetkalar yordamida yiliga 300 ming tonna tog' jinsini yer yuzasiga olib chiqish, shuningdek

1000 metr sathgacha bo'lgan zaxiralarini qazib olish va undan chuqurlikda joylashgan istiqbolli zaxiralarini o'rganish va baholash imkoni yaratildi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati va Chexiya Respublikasining "Mine Construction Alliance s.r.o." kompaniyasi mutaxassislari hamkorligida "Skipli" va "Asosiy" shaxta stvollarini ming metrlik chuqurlikda, ya'ni 0,00 metr sathda o'zaro tutashirildi. Bu esa, o'z navbatida, "Zarmitan" konida yer osti lahimlarini toza havo bilan ta'minlashni yaxshilaydi hamda zaxira chiqish yo'lidagi vazifasini bajarilmog'ida.

Suvdan oqilona foydalanish maqsadida 2024-yili "Zarmitan" koni hududida uch bosqichli suv tindirgich qurib foydalanishga topshirildi. Har bir tindirgich 500 kubometr, jami 1 ming 500 kubometr sig'imga, quvvati 4 ming 500 kubometr ega. Yer qa'ridan sizib chiqayotgan suvlar uchun bosqichli tindirgich orqali tindirilib, asosiy qismi "Zarmitan" koni shaxtalariga yetkazilib beriladi. Qolgan esa, "Yashil makon" dasturi doirasida yaratilgan bog'lardagi daraxtlarni sug'orishga va 4-sonli gidrometallurgiya zavodidagi texnologik jarayonlarda foydalanish uchun yetkazilmog'ida. Joriy yilning to'rt oyida zavodga qariyb 83 ming kubometr texnik suv yetkazib berildi.

2024-yili "Zarmitan" konida jami 500 kishilik ikkita maishiy bino va 80 o'rinni oshxonaga barpo etilgan bo'lsa, yaqin kunlarda yana qo'shimcha 400 o'rinni maishiy binoni foydalanishga topshirish arafasida turibmiz. 2025-yili 2 ta to'rt qavatli, jami 64 xonadondan iborat xizmat uyi foydalanishga topshirildi.

Bugun yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohtlar



shiddat bilan amalga oshirilmog'ida. Kon boshqarmamiz jamoasi ham davr bilan hamnafas tarzda odimlamog'ida. 2025-yili 2 million 397 ming tonna yoki 2011-yilga nisbatan qariyb 2 baravar ko'proq ma'dan qazib olishga erishdik. "Zarmitan" va "Gujumsoy" konlarida 2011-yilda 16,5 kilometr yer osti kon lahimlarini qazib o'tish ishlari bajarilgan bo'lsa, 2026-yilda ushbu ko'rsatkichni 56,2 kilometrga yetkazish rejalashtiril-

moqda. Eng muhimi, korxonamizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning yurtimiz iqtisodiyotida o'rni naqadar beqiyosligini chuqur his etib, 4-gidrometallurgiya zavodi va konlarimizda ish sur'atini yanada oshiramiz.

Toliboy YULDASHEV,
Janubiy kon boshqarmasi direktori.

O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuniga

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy drayverlaridan biri sifatida dunyoning oltin ishlab chiqaradigan yirik kompaniyalari orasida tobora o'z mavqeini mustahkamlab bormoqda. Bunda Navoiy mashinasozlik zavodining ham munosib hissasi bor.



BAYRAMNI YORUG' YUZ BILAN QARSHI OLYAPMIZ

Zavodimiz kombinatining yirik bo'linmalaridan biri bo'lib, mahalliyashtirilgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha respublikada yetakchi korxonalar hisoblanadi. Keyingi yillarda amalga oshirilgan modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni zamonaviy talablarga standartlarga muvofiqlashtirish natijasida zavodimiz Markaziy Osiyodagi yirik og'ir mashinasozlik korxonasi sifatida aylandi.

Zavodimizda metall quyishdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan uzluksiz tizim yo'lga qo'yilgan. Kombinat rahbariyatining qo'llab-quvvatlashi tufayli zavodimizda yangi turdagi mahsulotlar o'zlashtirilmoqda. Ayni paytda korxonada 15 ming turdan ortiq mahsulot tayyorlanmoqda. “NMZ” yorilgi o'stida ishlab chiqarilgan mahsulotlar nafaqat yurtimizda, balki qo'shni mamlakatlarda ham mashhur brend sifatida tan olinayotgani bizga alohida faxr va iftixor bag'ishlaydi.

Zavodimizda ishlab chiqarilayotgan o'ta yuqori aniqlikdagi metall konstruksiyalar, uskuna va jihozlar hamda turli o'lchamdagi ehtiyot qismlarning 98 foizi kombinat ehtiyotlariga yo'naltirilmoqda. Shuningdek, turli rusumdagi uskunalarni, standart jihozlar, nasoslar, reduktorlar va boshqa mahsulotlarimizga ichki va tashqi bozorda ham talab tobora oshib bormoqda.

Zavodda mahalliyashtirish dasturi asosida yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish va valutani tejash maqsadida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Kombinat ehtiyoti uchun zarur sharhli tegirmonlar yaqin-yaqingacha valuta hisobiga chetdan import qilinadi. Bu holatga chek qo'yish, sharhli tegirmonlarni o'zimizda ish-

lab chiqarish uchun “Mexanika-yig'uv sexini texnik va texnologik qayta jihozlash” loyihasi amalga oshirildi. Loyiha doirasida Janubiy Koreyadan zamonaviy tokarlik-karusel stanogi, gorizontal kesuvchi stanok va tish kesuvchi stanoklar olib kelindi, Xitoyda ishlab chiqarilgan 100 tonnalik yuk ko'tarish krani o'rnatildi.

Yangi sexning ishga tushirilishi natijasida og'irligi 980 tonnagacha bo'lgan tegirmonlar, shuningdek, yanchish uskunalari, nasoslar, quyultirgichlar ishlab chiqarish va ularni ta'mirlash, og'irligi 400 tonnagacha bo'lgan yirik o'lchamdagi jihozlarga ishlov berish imkoniyati yaratildi.

Quyunchilik sexida o'rnatilgan 25 tonnalik zamonaviy pech esa metall eritish quvvatini 30 ming tonnadan 40 ming tonnagacha oshirdi. Eng asosiysi, bu loyihalar ishlab chiqarish quvvatini oshirishdan tashqari mahalliy yoshlarni ish bilan ta'minlashga ham xizmat qilmoqda. Yaqinda sexda sig'imi 6 tonna bo'lgan pech modernizatsiya qilinib, uning sig'imini 4 tonnaga oshirishga muvaffaq bo'ling.

Gidravlika uskunalari ishlab chiqarish uchastkasi mutaxassislarning sa'y-harakatlari bilan amalga oshirilayotgan ishlar diqqatga sazovoridir. Uchastkada poliuretan mahsulotlarini quyish uchun yangi qurilma hamda Germaniya davlatidan tishli g'ildiraklarni jilvirlash stanogi kiritirib o'rnatildi. Natijada tishli detallar yuzasining tozalik darajasini oshirish va detallarning xizmat qilish muddatini uzaytirishga erishildi.

Yangi ishlab chiqarish obyektlarining foydalanishga topshirilayotganligi bilan bog'liq holda kombinat bo'linmalarining metall konstruksiyalar, jihozlar va ehtiyot qismlarga bo'lgan ehtiyotlari

kundan-kunga ortib boryapti. Ana shuni hisobga olib, zavodning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish investitsiya loyihasi doirasida yangi sex qurilishi belgilangan. Mazkur sexni joriy yil yakuniga qadar ishga tushirishni mo'ljallaganmiz.

So'nggi yillarda gidrometallurgiya zavodlari uchun zamonaviy sharhli tegirmonlar, gidrosiklon va konveyer qurilmalari, nasoslar, quyultirgichlar, standart uskunalar, metallkonstruksiyalar va boshqa turdagi mahsulotlar bevosita zavodimizda ishlab chiqarildi. O'tgan yilda 1 711 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Joriy yil ko'rsatkichlarimizni o'tgan yilning mos davriga solishtiradigan bo'lsak, bu 111 foizdan ortiqroqni tashkil etib, barqaror o'sish dinamikasi ta'minlanganligini qo'rsatayapti.

Ahli jamoamizning g'ayrat-shijoati, mavjud imkoniyatlardan to'g'ri va oqilona foydalanish evaziga bundan buyon ham mahsulot ishlab chiqarishda ana shunday o'sish sur'atiga erishamiz.

Mahalliyashtirish dasturi doirasidagi ishlarimiz maqtovg'a arzuquldir. Joriy yilda 123 ta loyiha doirasida 1 360 milliard so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan. Bu yuksak marra, hech shubhasiz, zabt etiladi. Xulosa shuki, korxonamiz jamoasi O'zbekiston Respublikasi konchilar va metallurgiya sanoati xodimlari kunini munosib muvaffaqiyatlar, yorug' yuz bilan qarshi olmoqda. Mehnatimiz samarasi Yangi O'zbekistonning iqtisodiy qudratini yuksaltirishga xizmat qilayotganidan mamnunmiz.

Jahongir HAYITOV,
Navoiy mashinasozlik zavodi direktori.

9-may – Xotira va qadrlash kuni

Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Navoiy kon-metallurgiya kombinati ma'muriyati va kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan mehnat va frontori faxriylariga ehtirom, izzat-ikrom ko'rsatildi.

FAXRIYLARGA EHTIROM

O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashining Navoiy filiali, NKMK yoshlar yetakchilari Kengashi shunday xayriy ishlariga bosh bo'lishdi. Kombinat tizimida uzoq yillar samarali mehnat qilgan yetti nafar mehnat fronti ishtirokchilarining har biriga O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari faxriylari Kengashi tomonidan 7 million so'mdan pul mablag'i, NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan oziq-ovqatlar to'plami topshirildi. Kasaba uyushmasi hamda faxriylar Kengashi rahbarlari yoki vakillari shunday e'tiborga munosib ko'rilgan faxriylar xonadonida bo'lib, ularga O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari faxriylari Kengashi raisi A.Farmonov va “NKMK” AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulovlarning bayram qutlovlari hamda samimiy tilaklarini yetkazishdi.

Kombinatning Uchquduq, Zarafshon, Navoiy shaharlarida va Zarkent qo'rg'onida ulkan korxonada faoliyat ko'rsatib, ayni paytda nafaqada bo'lgan faxriylari uchun bayram dasturxonini yo'zildi. Kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan yolg'iz keksalar, bemor, ijtimoiy himoyaga muhtoj

kishilardan yuz nafarining holidan xabar olinib, ularga moddiy yordam ko'rsatildi.

Kombinat yoshlar yetakchilari tashabbusi bilan qabristonlar va masjidlar hududlarida keng ko'lami tozalash, obodonlashtirish ishlarini amalga oshirildi. NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi va Markaziy moddiy-texnika bazasi jamoasining ko'magida mazkur baza pensioneiri Yelizaveta Tixonovna Bocharovaning Navoiy shahri Ibn Sino ko'chasidagi xonadoni ta'mirlab berildi. Ko'rsatilgan yordamdan mehnat fronti qatnashchisi Ye.Bocharova behad minnatdor.

Zarkent qo'rg'onida Janubiy kon boshqarmasi bo'linmalarida ishchi-xodimlari ishtirokida “Xotira bor ekan – millat barhayot”, “Burch, jasorat, matonat” shiorlari ostida bo'lib o'tgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda Ikkinchi jahon urushida ajdodlarimizning janggohlarda ko'rsatgan jasorati, front ortidagi mehnati haqida so'z bordi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tabobalarimizning xotirasiga yuksak hurmat-ehtirom ko'rsatish bungi minnatdor avlod uchun burch ekanligi alohida ta'kidlanganligi bilan ahamiyatlidir.

Asliddin RO'ZIYEV.

Yangiliklar. Xabarlar

PECH QUVVATI OSHIRILDI

Navoiy mashinasozlik zavodi mutaxassislari korxonada mavjud ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish hisobiga mahsulot hajmini oshirish, sifatini yaxshilash, tannarxni arzonlashtirish yo'lida jiddiy ishlanishlar olib bormoqdalar.

Shunday sa'y-harakatlar natijasida quyunchilik sexidagi suyuq metall sig'imi 6 tonna bo'lgan pech modernizatsiya qilinib, uning o'lchamlariga o'zgartirish kiritildi hamda sig'imi 10 tonnaga yetkazildi. Pechning texnik parametrlari optimallashtirilishi tufayli yiliga qo'shimcha ravishda 2900-3000 tonna quyunchilik mahsulotlar ishlab chiqarish, po'lat, cho'yan bilan bir qatorda ferroqotishmalar ham eritish imkoniyati yaratildi. Pech alohida bo'limga ko'chirilganligi evaziga quyunchilik qoliplash maydoni kengaydi. Shu bilan yirik o'lchamdagi quyunchilik o'z vaqtida, kerakli miqdorda qoliplash muammosi ham hal etildi.

Pechning sig'imini oshirishda quyunchilik sexi boshlig'i Zafar Bobodov, energetigi Abdullayev, mexanigi Elniyoz Xalilov, texnologisi Rasul Xudoyberdiyev, ustasi Azamat Eshquvvatov va boshqa mutaxassis hamda ishchi-xodimlarning alohida xizmatlari bo'ldi.

N.XAYRIDINOV.

KUN TARTIBIDA – DOLZARB MASALA

Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini baholashning asosiy ko'rsatkichlaridandir. Yaqinda Navoiy mashinasozlik zavodida bo'lib o'tgan seminar ana shu dolzarb mavzuga bag'ishlandi.



Tadbir avvalida mavzuga doir videorolik namoyish qilindi. Shundan so'ng Navoiy mashinasozlik zavodi bo'yicha MM va XT bo'limi boshlig'i Yaxyo Aramovning bo'lim jamoasining joriy yil birinchi choragida amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma'ruzasi tinglandi. Ma'ruzada ta'kidlanganidek, hisobot davrida birlashma bo'linmalarida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, sanoat sanitariyasi hamda mehnat intizomi holatlari bo'yicha 37 ta tekshirish o'tkazilib, mehnat qonunchiligi, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini, me'yori va yo'riqnomalari bo'yicha 160 ta qoidabuzarlik aniqlanib, 30 nafar ishchi-xodimga intizomiy jazo choralari qo'llanildi.

Birlashmaning barcha ishchi-xodimlari maxsus kiyim, poyabzal, shaxsiy himoya vositalari, davolash profilaktik oziq-ovqat, sut mahsulotlari, choy va sovun bilan ta'minlandi. Ana shu maqsadlar uchun 2 milliard 143 million so'mdan ortiq mablag' sarflandi. Chorak davomida ishchi-xodimlarning MM va XT bo'yicha bilimlari sinovdan o'tkazildi. Yangi ishga qabul qilingan ishchi-xodimlar ishni xavfsiz bajarish yuzasidan o'qitildi.

Navoiy viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasiga qarshili mehnat inspeksiya boshqarmasini muhofaza qilish bo'yicha bosh davlat texnik inspektori Sanjar Sirojov o'z qiziqishida mehnat qonunchiligi sohasidagi o'zgarishlar xususida ma'lumot berib, respublikamiz va viloyatimizda ro'y bergan baxtsiz hodisalarga o'talib o'tdi. Barcha mutasaddilarni bunday hollarning oldini olishga da'vat etdi. Tadbirda “NKMK jamg'armasi” davlat muassasasiga qarashli Tibbiy-sanitariya bo'limining

ortoped-travmatologi Mirzohid Hojiyev va reanimatologi Zayniddin Nazarovlar ishlab chiqarish jarayonlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan shikastlanish holatlarida birinchi yordam ko'rsatish yuzasidan amaliy ko'rsatmalarni namoyish etdi va ishtirokchilarni qiziqtirgan savollarga javob berdi.

Seminarida birlashma texnik nazorat guruhi rahbari Anvar Ubaydullayev, favqulodda vaziyatlar xizmati boshlig'i Akmal Temirov, sanoat xavfsizligi bo'yicha muhandisi Muhiddin Irgashev ham ma'ruza bilan chiqish qildilar.

Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi qonun-qoidalarini, ma'lumot berib, intizomiy jazo choralari qo'llanildi. Birlashmaning barcha ishchi-xodimlari maxsus kiyim, poyabzal, shaxsiy himoya vositalari, davolash profilaktik oziq-ovqat, sut mahsulotlari, choy va sovun bilan ta'minlandi. Ana shu maqsadlar uchun 2 milliard 143 million so'mdan ortiq mablag' sarflandi. Chorak davomida ishchi-xodimlarning MM va XT bo'yicha bilimlari sinovdan o'tkazildi. Yangi ishga qabul qilingan ishchi-xodimlar ishni xavfsiz bajarish yuzasidan o'qitildi.

Navoiy viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasiga qarshili mehnat inspeksiya boshqarmasini muhofaza qilish bo'yicha bosh davlat texnik inspektori Sanjar Sirojov o'z qiziqishida mehnat qonunchiligi sohasidagi o'zgarishlar xususida ma'lumot berib, respublikamiz va viloyatimizda ro'y bergan baxtsiz hodisalarga o'talib o'tdi. Barcha mutasaddilarni bunday hollarning oldini olishga da'vat etdi. Tadbirda “NKMK jamg'armasi” davlat muassasasiga qarashli Tibbiy-sanitariya bo'limining

N.SADRIDDINOV.

TARAQQIYOT VA YUKSALISH – MAQSADIMIZ

❑ Oxiri. Boshlanishi 1-betda



“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati jahondagi yirik sanoat korxonalaridan biri sifatida xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarib, yurtimizning iqtisodiy qudratini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Uning tarkibiy qismi bo'lgan “Qizilqum” kon boshqarmasida oltin va temir kuprosi kabi muhim mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Jamoamiz konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kunini barcha ko'rsatkichlar yuzasidan to'rt oylik rejalarini bajarib, munosib kutib olmoqda. Bugungi yutuqlarimiz, eng avvalo, jamoamizning fidokorona mehnati samarasidir.

Korxonamizda ma'dan qazib olish rejasini 105,4 foizga, ma'danni qayta ishlash – 101 foizga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish – 100,8 foizga uddalandi. Investitsiya dasturi doirasida 25,6 million dollar o'zlashtirilib, tannarxni kamaytirish hisobiga 115 milliard so'mdan ortiq mablag' tejaladi. Modernizatsiya

ishlari natijasida 1 va 6-gidrometallurgiya zavodlarining ishlab chiqarish quvvatlarini sezilarli darajada oshirildi.

Boshqarmamiz tarkibiga “Aristantov”, “Pistali” va “Qoraqo'ton” konlari, 1 va 6-gidrometallurgiya zavodlari, shuningdek, Avtotransport boshqarmasi kiradi. So'nggi yillarda konlarda ochiq va yer osti ishlarini ko'lami kengayib, yangi xomashyo manbalari ishga tushirilyapti. Ayni paytda “Beshquduq”, “Shimoliy”, “Oltin diyor”, “Bo'z-tau”, “Elsay”, “Baxtli”, “Tulkitov” va “Qumsoy” konlarida geologik-qidiruv va ishlab chiqarish ishlari jadal davom etmoqda.

“Qoraqo'ton” oltin konining yillik ishlab chiqarish hajmini oshirish, foydali xizmat muddatini uzaytirish maqsadida Yangi Davon konining sharqiy qismi va Toshkon koni tarkibiga kiruvchi 8, 71, 74-ma'dan tanalarini chuqur tadqiq etish va istiqbolli ma'dan jismlarini dastlabki o'rganish bo'yicha geologik-qidiruv

ishlari olib borilmoqda. Ochiq va yer osti kon ishlarini kengaytirish kon boshqarmamiz uchun yangi quvvatlar, yangi resurslar va yangi loyihalarni amalga oshirishda mustahkam zamin yaratadi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy kon-transport texnikalarini xarid qilish, yangi texnologik jarayonlarni joriy etish va quvvatlarini kengaytirish ishlarini izchil amalga oshirilmog'ldir. Joriy yilda 4 dona Hitachi rusumli ekskavator, 8 dona Komatsu rusumli yuk tashuvchi avtomog'dargich, 2 dona frontal yuklagich, 1 dona yuklash-tashish mashinasi, 1 dona yoqilg'i quyish mashinasi, 1 dona shaxta avtobusi hamda boshqa turdagi kon-transport texnikalarini xarid qilish ko'zda tutilgan. Bu esa kelgusida iqtisodiy samaradorlikni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kon boshqarmamizda ijtimoiy sohani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oltin konlarda

ishlovchi xodimlar uchun munosib yashash va mehnat sharoitlari yaratilgan. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida keng ko'lami ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirildi. Jumladan, “Pistali” koni va 6-GMZ hududida 175,5 gektar maydonda Alisher Navoiy nomi berilgan ulkan bog' barpo etildi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida bu yerga 345 mingdan ziyod manzarali, mevali daraxtlar va butasimon ko'chatlar ekildi, 149 gektar maydonda tomchilatib sug'orish tizimi o'rnatildi. Vaxta usulida ishlaydigan ishchilar uchun barcha sharoitlarga ega zamonaviy vaxta shaharchasi bunyod etilgan. Shaharchada oshxonalar, savdo do'konlari va tibbiy xizmat ko'rsatuvchi punkt ishlab turibdi, shuningdek zamonaviy sport majmuasi ham mavjud.

Bugungi kunda kon boshqarmamizda qariyb 4,5 ming nafar ishchi-xodim mehnat qilmoqda. Jamoamizning yoshlar, korxonamiz ishchi-xizmatchilari, mutaxassislari safida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarning ko'payib borayotgani esa erangi yutuqlarimizning mustahkam poydevoridir. Biz bundan buyon ham jamoamizni iqtidorli kadrlar hisobiga to'lib boshishga alohida ahamiyat beramiz.

Qutlug' kasb bayrami nishonlanayotgan kunlarda kon boshqarmamizning har bir vakili oldilarida ulkan vazifalar turganligini yuksak mas'uliyat hissi bilan chuqur anglab yetmoqdalar. Bu esa bizni yanada barakaliroq mehnat qilish, bor imkoniyatlardan samarali foydalanishga da'vat etayapti.

Avazxon EZZOXONOV,
“Qizilqum” kon boshqarmasi direktori.

■ Madaniyat



“QIZILQUM JAVOHIRLARI”

poytaxt sahnasini zabt etdi

Mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan xayri tashabbuslar izchil davom ettirilmoqda. Joriy yilning 1-2-may kunlari Navoiy kon-metallurgiya kombinati madaniyat muassasalarining ijodiy jamoalari va ansambllari ishtirokida Toshkent shahridagi O'zbekiston kasaba uyushmalari saroyida “Qizilqum javohirlari” konsert dasturi namoyish etildi. Ikki kun davom etgan mazkur madaniy tadbir san'atsevarlar uchun o'ziga xos bayramga aylandi.



qadar boy va umrboqiy ekanini yana bir bor isbotladi. Tomoshabinlarning “Barakalla!”, “Qoyil!” deya qilgan olqishlari va ustoz san'atkorlarning yuksak e'tiroflari bejiz emas. Konsert dasturidan o'rin olgan rus, qozoq, qirg'iz va xitoy kabi xalqlarning milliy raqslari ko'p millatli xalqimizning yuksak madaniyatini va bag'rikengligini yaqqol namoyish etdi.

– San'at – inson qalbinin tili, raqs esa uning eng go'zal ifodasidir. Men uchun “Marvarid” raqs ansambli ijdod qilish hayotimning mazmuniga aylangan. Ko'p yillardan buyon ushbu jamoada ustozlarimdan san'atning nozik sirlarini, harakatlar orqali his-tuyg'ularni bayon etishni o'rganib kelayapman. Sahnaga chiqib kelar ekanim, tomoshabinlarning bizga bo'lgan mehri yuragim-



Tadbirda mehnat faxriylari, kasaba uyushmalari Federatsiyasi vakillari hamda alohida e'tiborga muhtoj insonlar taklif etildi. Shuningdek, madaniyat va san'at ta'lim muassasalari o'qituvchi va o'quvchilari, milliy madaniyat markazlari vakillari hamda poytaxtimiz aholisi ushbu san'at kechalarning aziz mehmoni bo'lishdi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati ishchi-xodimlari asosan Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Zafarobod, Nurobod va Zarkent shahar hamda qo'rg'onlarida istiqomat qilib kelishadi. Ularning farzandlari ushbu maskanlarda joylashgan “Farhod”, “Oltin vodi”, “Uchquduq”, “Nurobod”, “Konchi” madaniyat saroylari hamda ijodiyot uylarida faoliyat yuritayotgan 170 dan ortiq badiiy jamoa va to'garaklarining ishtirokchilari. To'rt ming nafarga yaqin havaskor san'atkorlarni qamrab olgan ushbu madaniyat maskanlarida “Shirin”, “Marvarid”, “Favvora”, “Sardoba”, “Sado”, “Farhod”, “Zarparchalar” raqs ansambllari, “Ivushka” xor jamoasi, “Nihol” va “Tarona” o'zbek xalq cholg'u orkestrlari, “Shok” estrada-raqs ansambli kabi ijodiy guruhlarning o'zining betakror repertuarlari bilan muxlislar olqishiga sazovor bo'lib kelishmoqda.

“Qizilqum javohirlari” an'anaviy xayriya konserti 2013-yildan buyon poytaxtimizning muhtasham san'at saroylarida keng jamoatchilik e'tiborini qozonib kelmoqda.

– Navoiy kon-metallurgiya kombinatidek ko'p-ming kishilik ulkan jamoaning ishlab chiqarishdagi fidokorligi san'atdagi yuksak mahorat bilan shunday go'zal tarzda uyg'unlashgan tahsinga loyiqdir, – deydi “Nihol” davlat mukofoti sovrindori, “Farhod” madaniyat saroyi direktori o'rinbosari Sherzod Davronov. – Bugungi konsert dasturi Qizilqum bag'rida kamol topayotgan yosh iqtidorlarning katta sahnadagi chinakam g'alabasi bo'ldi.

Konsert davomida navoiylik san'atsevar yoshlarning shijoati va iste'dodiga havas qilgan ko'plab mehnat faxriylari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

– “Qizilqum javohirlari” konsert dasturini tomosha qilar ekanman, navoiylik konchilar farzandlarining mahoratiga qoyil qoldim. Ular shaharda shunchalik erkin va shijoat bilan harakat qilishdiki, beixtiyor yurtingimning kelajagi mana shunday gavhar qabli yoshlar qo'lidagi ekaniga amin bo'ldim. O'zim chorak asr davomida Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida mehnat qildim, hozir ham jamoam ardog'idaman. Bilasizmi, sanoat xodimlari doim san'atni o'zgacha qadrlaydi, undan kuch oladi. Men bugun shuning amaliy isbotini guvohi bo'ldim, – deya o'z hayajonlari bi-

lan o'rtoqlashdi mehnat faxriysi Laylo Aliboyeva. Bugun kombinat madaniyat muassasalarini yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, san'atga ehtirom tuyg'ularini shakllantiruvchi katta tarbiya maktabiga aylandi. “Qizilqum javohirlari”, “Qizilqum san'at g'unchalari”, “Qizilqum ovozi”, “Qizilqum ohanglari” va “Oltin meros” kabi an'anaviy tanlovlar bejizga estrada, folklor va maqom yo'nalishlarini qamrab olgan.

– Qariyb o'n besh yildan beri poytaxtimizning nufuzli san'at saroylarida doimiy ravishda hayriya konsert dasturlarida ishtirok etib kelaman. Bu esa jamoamizning katta mas'uliyat bilan ijdod qilayotganidan va san'atsevar muxlislar ishonchini oqlayotganimizdan dalolat beradi. Konsert davomida yangrayotgan turli tillardagi kuy-qo'shiqlar va ijro etilayotgan dilrabo raqslar san'atning til tanlamasligini, xalqlarimiz o'rtasidagi mehr-oqibat va do'stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilishini yana bir bor isbotlaymoqda, – deydi “Farhod” madaniyat saroyi yakkaxon xonandasi, “Do'stlik” ordeni sohibi Serijan Janaxmetov.

– Xalqimizning ma'naviy olami, ongu tafakkurini yuksaltirishda madaniyat va san'atning o'rni beqiyos. Bugungi konsert dasturidan olgan taassurotlarimni so'z bilan ta'riflashim qiyn. Zalda o'tirib, sahnadagi yoshlarning chiqishlarini kuzatar ekanman, shunday yirik sanoat korxonasida san'at va madaniyatga bo'lgan munosabat juda ibratli ekanligiga guvoh bo'ldim, – dedi Respublika qozoq milliy madaniy markazi raisi Serikbay Usenov.

“Shirin”, “Marvarid”, “Ekspressiya”, “Allegra” kabi raqs ansambllarining jozibali chiqishlari, xalq cholg'ularining o'tkir navolari va raqqosalarning mahoratli ijrosi barchani hayratga soldi. Bularning barchasi o'zbek milliy san'atining na-

dagi shijoatni oshirdi. Qo'llarimizning harakatlari orqali tomoshabinlarga milliy va qardosh xalqlar san'atining nafosatini yetkazishga intildik, – deydi “Marvarid” raqs ansambli ishtirokchisi Barchinoy Sobirova.

So'nggi yillarda jamoalarning xalqaro tanlovlardagi ishtiroki yangi-yangi marralarni zabt etishga imkon bermoqda. Qirg'iziston, Qozog'iston davlatlari hamda poytaxtimizda o'tayotgan nufuzli tanlovlarda “Debyut”, “Allegra”, “Fauntera”, “ShOK” kabi jamoalarning Gran-pri va faxrli o'rinlarni qo'lga kiritishi quvonarlidir.

– Konsertda raqs ansambllarning chiqishlari, xalq cholg'u asboblardagi o'tkir va jozibali navolar, raqqosalarning o'zgacha ijrosi o'zbek milliy san'atining naqadar boy va umrboqiy ekanini yana bir bor tasdiqladi. Yoshlarning san'atga bo'lgan munosabati, ularning maqsad sari intilishi va sahnadagi ijrosi yurtingimning ertangi kuni bo'lgan navqiron avlodning naqadar salohiyatli ekanini ko'rsatmoqda, – deydi poytaxtlik san'atsevar muxlis Gulnoza Sharofova.

Dasturdan o'rin olgan rang-barang kuy-qo'shiqlar va dilbar parvarlik tomoshabinlar qalbidagi ezigulik, vatanparvarlik hamda mehr-oqibat tuyg'ularini jo'sh urdirdi. Turli tillarda yangragan taronalar ishtirokchilarga xush kayfiyat ulashib, muxlislarning yuksak e'tirofiga sazovor bo'ldi. Konsert dasturidan so'ng kombinat madaniyat muassasalarini vakillari uchun poytaxtimiz bo'y-lab qiziqarli sayohat tashkil etildi. Xususan, Islom sivilizatsiyasi markazi hamda davlat sirkiga qilingan ekskursiya barchada bir olam taassurot uyg'otdi.

Azamat ZARIPOV,
Dildora KARIMOVA.

■ Mustaqilligimizning 35 yilligiga

YUKSALISH ODIMLARI

Istiqlol sharofati tufayli ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar, iqtisodiy rivojlanish va yuksalish ro'y beryapti. Buni birgina Qo'shrabot tumanidagi Zarkent qo'rg'oni va Janubiy kon boshqarmasiga qarashli “Zarmitan” koni misolida ham ko'rish mumkin.

Ma'lumki, 2002-yildan e'tiboran kon Navoiy kon-metallurgiya kombinati tasarrufiga o'tkazildi. Shundan so'ng kon jamoasi hayotida yangi bosqich boshlandi. Agarda 2002-yilda konda 91 ming 550 tonna ma'dan qazib olingan bo'lsa, oradan besh yil o'tib atigi 5,4 foizga o'sdi yoki 96 ming 505 tonnani tashkil etdi. 2008-yildan e'tiboran konda ma'dan qazib olish jadal sur'atda osha bordi. Raqamlarga e'tibor qaratamiz: o'sha yili konda 122 ming 895 tonna, 2009-yilda esa 568 ming 808 tonna oltin tarkibli ma'dan qazib chiqarildi. 2020-yil ko'rsatkichi, ya'ni 1 million 265 ming 298 tonna ma'dan qazib olganligini 2007-yilgi ko'rsatkichga taqqoslaydigan bo'lsak, qariyb 14 baravar o'sish ta'minlangani oydin bo'ladi. Bu raqamlar yuksak tashkilotchilik, mutaxassislar va ishchi-xizmatchilar salohiyati osh-

ganligi, eng muhimi, jamoaning fidokorona mehnatidan dalolat beryapti. O'tgan yili “Zarmitan” konidan 1 million 507 ming 920 tonna ma'dan qazib chiqarildi. Ko'rinib turibdiki, korxonada ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda. Ishchi-xizmatchilarining turmush darajasi, farovonligi ham shunga mos tarzda oshib borayotganligi quvonarli holdir.

Hozirgi kunda Zarkent qo'rg'oni katta shaharlardagidan qolishmaydigan mo'jazzgina maskanlardan biridir. Shaharchada konchilar va metallurklar, shuningdek, hudud sanoat imkoniyatlarini ro'yobga chiqarayotgan boshqa kasb egalari va ularning farzandlari uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo etilgan.

Abdulhamid QURBONOV,
“Zarmitan” koni yetakchi muhandisi.

O'ZBEKISTON XALQ SHOIRI

konchi-shaxtyorlar huzurida



O'zbekiston xalq shoiri Xosiyat Bobomurodova Janubiy kon boshqarmasi ishchi-xodimlari huzurida bo'ldi. Mustaqilligimizning o'ttiz besh yilligi oldidan uyushtirilgan she'riyat kechasi ishtirokchilar va muxlislariga cheksiz mamnunlik bag'ishladi.

Qo'shrabot ahli azaldan adabiyot, she'riyat shaydosi, kitobsevar el. Ular doim ijodkorni, so'zni, kitobni yuksak qadrlaydi. Shu bois ham bu hududdan yetuk yozuvchi-shoirilar, baxshilar, o'qimishli insonlar, rahbarlar ko'p yetishib chiqqan.

Eng ulug', eng aziz bayram arafasida xalq shoiri Xosiyat Bobomurodova, shuningdek, taniqli samarqandlik ijodkorlar Qurbonoy Yusupova, Aziza Boymurodovaning konchilar huzuriga kelishini butun zarkentliklar quvonch bilan qarshi oldi. Ijodiy kechada sevimli shoiramiz va shoirilar tomonidan aytilgan ona-Vatan, mustaqillik, sharafli kasb egalari mehnatini madh etuvchi ijdod namunalari barchaga mashaqqatli mehnatdan so'ng mazmunli hordiq, faxru iftixor va shukronalik ulashdi.

– O'tgan hafta taniqli olima Dilrom Yormatova bilan Nurobod sanatoriyasida dam olayotgan paytda xonamizga kutilmaganda Janubiy kon boshqarmasidan vakillar kirib kelishdi. Ular bilan dilto'ragurungimiz juda qovushib ketdi. Xayrlashish chog'ida ular bizni go'zal bahor tarovatidan yashnab ketgan Zarkent qo'rg'oniga, konchilar huzuriga taklif etganida boshim o'smonga yetdi. Shu bahona, mana bugun konchi-shaxtyorlar, metallurklar, soha fidoiylari huzurida bo'ldik. Tadbirda puxta tayyorgarlik ko'rilgani uchun uchrashuv juda maroqli, biz kutgandan ham ziyoda o'tdi, – deydi X.Bobomurodova.

Muxlislar olqishi, konchilar tomonidan yoddan aytilgan she'rlar, e'tirof va tabriklar davragiga o'zgacha fayz, zavq va ko'tarinkilik bag'ishladi.

– Xosiyat opaning she'rlarini sevib o'qiyman. Ancha-munchasini yoddan ham bilaman. Chunki, sevimli shoiramizning har bir ijodi xalqchilik, ko'ngilga yaqin va baxshiyona. Samimiy ruhda yozilgan satrlari yurakka yetib boradi. Bugungi kechada yana bir karra bunga amin bo'ldim, – deydi “Zarmitan” koni xodimi Mohigul Mamedova – Taniqli shoira X.Bobomurodova o'z ijodi bilan xalqimiz orasida hurmat-e'tibor qozongan ijodkordir. Uning “Daryodan qatra” she'riy to'plami (1979), “Qalb titrog'i” (1984), “Turnalarim” (1984), “Samarqandga maktablar” (1988), “Men uzgan gullar” (1992), “Murod qasri” (1997), “Saylanma” - Baxt maydoni (2025) nomli kitoblari, shuningdek, “Bola ko'targan ayol” dramasi, “Vatan yagonadir”, “Jonimning egasi”, “To'ylar muborak!”, “Bormisan, o'zbek”, “Mehror”, “Hayqiriq” dostonlari, “Qizilqum malikalari”, “Samarqand sanamlari”, “Qirg'yigit qissasi”, “Sahrodagi jannat”, “Sensiz”, “Gul yomg'iri”, “O'quvchi odoblari” she'riy to'plamlari, publitsistik kitoblari nashrdan chiqqan va allaqachon o'z muxlislarini topgan.

Xosiyat Bobomurodova O'zbekiston xalq shoiri, “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi”

faxriy unvonlari, “Mehnat shuhrati” va “El-yurt hurmati” ordenlari, “Shuhrat” medali bilan taqdirlangani uning serjira ijodiga berilgan yuksak e'tirofdir.

– Qo'lga qalam tutgan ayolning hayoti hech qachon silliq kechmagan: u o'zining murakkabliklari, sinovlariyu dardi va shu dardni qalanga tushirishdek yumushni gardaniga yuklaydi. Taqdir menga mana shunday hayotni nasib etganidan doim shukur qilib kelganman. Dard chekkanimda ham, quvonchdan boshim ko'kka yetguday bo'lgan paytlarim ham so'zga suyardim. Qisimatimga bitilgan so'z aytish dardi ba'zan xanjar bo'lib tanamni yaralasa, ba'zan malham bo'lib, meni yana oldinga undadi, yashashga chorladi. Shukurki, adabiyotning, so'zning chin muxlislari hamon ko'p. Shoirming dard chekib bitgan misralaridan malham topadiganlar bisyor. Bugungi davrada hamkasblaringiz, ayniqsa, yoshlarning yoniq ko'zlarini ko'rib, qalbm taskin topdi. Angladimki, ularning ko'ngli bepoyon dashtingizdek keng, g'ururi tog'dek baland, intilishlari bo'lakcha, maqsadlari katta.

Shu o'rinda, ko'klam nafasi kezayotgan, butun olam yashillikka burkangan ushbu pallada ardoqli shoiramizning “Bahor” she'rini sizlarga ham ilingimiz keldi:

Buncha nozik, mitti g'unchalar,
Qanday qilib ochilar, kular?
Balki uning jasoratini
To'lg'oq tutgan onalar bilan.

Qirg'oqlarga sig'may toshar suv,
Shivirlaydi yashil yaproqlar.
Turnalarning qaytganin ko'rib,
Vujudimga kirar titroqlar.

Karaming mo'l, qodir Allohim,
Maysa ekding hatto toshgacha.
Yashash darsin o'tarsan balkim,
Bahorning keksa, yoshgacha.

Ufqlarga yetsa qulochim,
Lolalarni bag'ringa bossam.
Kapalakning qanotlariga
Yonib turgan dilimni ossam.

Bahorning gul quchoqlarida
Tirilgim, ham o'lgim keladi.
O'zbekiston, onam, bag'ringda,
Bahor bo'lib qolgim keladi.

Dildora ATABAYEVA,
Janubiy kon boshqarmasi
Axborot va ma'naviyat-ma'rifat guruhi rahbari.